

**PUL TALABNOMASINI O‘TKAZISH (FAKTORING) BO‘YICHA  
MOLIYALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA  
SHARTNOMA**

**Toshkent shahri**

**" sana " oy 20 \_\_\_\_y.**

Nizom asosida ish yurituvchi “ASIA ALLIANCE VANK” ATB Boshqaruv Raisi Abduazimov U.A. vakillik qiluvchi, bundan keyin “Moliyaviy agent” deb yuritiluvchi bir tomondan, Nizom asosida ish yurituvchi “\_\_\_\_\_” MChJ direktori \_\_\_\_\_ vakil bo‘lgan, bundan keyin "Mijoz" deb yuritiluvchi boshqa tomondan, birgalikda "Taraflar" deb yuritiladiganlar, ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar.

**1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**

**Moliyaviy agentning mukofoti (komissiya, chegirma)** - Tariflarda nazarda tutilgan tartibda, miqdor va shartlarda belgilanadigan Mijoz tomonidan Moliyaviy agentga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul qiymati. Shartnoma bo‘yicha barcha kechiktirilgan davr uchun moliyalashtirilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qarzdor tomonidan Pul talabnomasi muddatidan oldin qoplanadigan taqdirda, moliyalashtirishdan foydalanganlik uchun komissiya miqdori qayta ko‘rib chiqilmaydi.

**Qoplanish sanasi** - Qarzdor tomonidan o‘tkazilgan Pul talabnomasi qiymatini Moliyaviy agentga o‘tkazish majburiyati bajarilgan sana.

**Regress sanasi** - Regress davrini bajarilishining tugallanish sanasi.

**Qarzdor** –Mijoz bilan Shartnoma tuzgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lib, ushbu Shartnomaga ko‘ra Mijozning mahsulotlarni (xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish) Qarzdorning foydasiga taqdim etishi natijasida kelib chiqadigan Pul talabnomalarini Shartnomada belgilangan to‘lovni kechiktirish shartlari bo‘yicha to‘lashi shart.

**Pul talabnomasi (qarz miqdori)** – Qarzdorning O‘zbekiston Respublikasi valyutasida ifodalangan, Shartnoma shartlari bo‘yicha yetkazib berilgan mahsulotlar (ko‘rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) uchun haqni to‘lash bo‘yicha Birlamchi hujjatlarda tasdiqlangan Mijoz oldidagi majburiyati.

**Mijoz** - Qarzdorga mahsulotlarni taqdim etish (xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish) natijasida Qarzdorga nisbatan talab qilish huquqiga ega bo‘lgan, u bilan tuzilgan Shartnoma bo‘yicha to‘lovni kechiktirish shartlari bo‘yicha unga mahsulotlarni (xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish) yetkazib beradigan, Moliyaviy agentdan faktoring xizmatlariga qiziqish bildirgan/ bildirganlar yoki faktoring xizmatlarini olayotgan/olgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

**Shartnoma** - Mijoz va Qarzdor o‘rtasida to‘lovni kechiktirish shartlari bo‘yicha mahsulotlarni yetkazib berish/sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutuvchi - \_\_\_\_\_sanadan \_\_\_\_\_sonli shartnoma.

**Shartnoma bo‘yicha to‘lovni kechiktirish** - Shartnomada ko‘zda tutilishi mumkin bo‘lgan Pul talabnomasini to‘lashning maksimal kechiktirilishi - 180 (bir yuz sakson) kun.

**Regress bajarilishi davri** - bu Qarzdor tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Mijoz Moliyaviy agentga ilgari o‘tkazib berilgan talabnomani to‘lashi shart bo‘lgan vaqt davri. Regressni bajarilish davri Imtiyozli davr tugagan kundan keyingi kundan boshlanadi. Regressni bajarilish davri 5 kalendar kunni tashkil qiladi.

**Moliyalashtirish qiymati** – o‘tkazilgan Pul talabnomasi miqdorining 100% ga teng miqdordagi qiymat.

**Tariflar** - Moliyaviy agenti tomonidan tasdiqlangan, Moliyaviy agentning mukofoti miqdorini belgilaydigan hujjat.

**2. SHARTNOMA MAVZUSI**

2.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq, Mijoz Moliyaviy agentga Qarzdorga nisbatan Pul talabnomalarini topshirish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi, Moliyaviy agent esa o'tkazilishning predmeti bo'lgan Pul talabnomalari bilan bog'liq quyidagi harakatlarni amalga oshirishga majburdir:

- Pul talabnomalari hisobiga Mijozga pul mablag'larini o'tkazish;
- Mijozning uchinchi shaxs (Qarzdor) oldidagi Pul talabnomalarini hisobga olishni amalga oshirish;
- Mijozning Pul talabnomalari bo'yicha huquqlarni amalga oshirish, shu jumladan Qarzdorga to'lash uchun Pul talabnomalarini taqdim etish, Qarzdordan to'lovlarni qabul qilish va Pul talabnomalari bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish;

2.2. Moliyaviy agent Mijozga o'tkazilgan Pul talabnomasi miqdorining 100 foizini tashkil etadigan \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm (keyingi o'rinlarda Moliyalashtirish qiymati deb yuritiladi) miqdorida moliyalashtirishni taqdim qiladi.

2.3. Mijozning Pul talabnomalarini o'tkazish huquqi quyidagi hujjatlarning nusxalari bilan tasdiqlanadi: \_\_\_\_\_ (*hisob-fakturalar, chiqim yo'l varaqlari, mahsulot- moddiy zaxiralarni qabul qilish va topshirish dalolatnomalari, muvofiqlik sertifikatlari, sifat sertifikatlari, kelib chiqish sertifikatlari, asbob-uskunalarining spesifikatsiyalari, Shartnomaning bajarilishini ta'minlanishi*).

2.4. Mijoz u va Qarzdor o'rtasida Pul talabnomalarini uchinchi shaxsga o'tkazishni taqiqlovchi yoki cheklovchi kelishuvlar mavjud emasligiga kafolat beradi.

2.5. Ushbu Shartnomaga muvofiq, Moliyaviy agent tomonidan Pul talabnomalarini keyinchalik o'tkazishga ruxsat beriladi.

### **3. PUL TALABNOMALARINI O'TKAZISH BO'YICHA MOLIYALASHTIRISHNING TARTIBI VA ASOSIY SHARTLARI**

3.1. Pul talabnomasi Taraflar Shartnomani imzolagan paytdan e'tiboran Moliyaviy agentga o'tadi, agar Shartnomani imzolash paytida tayinlangan moliyaviy talabni to'lash majburiyati allaqachon yuzaga kelgan bo'lsa.

3.2. Pul talabnomalarini o'tkazish bilan bir vaqtda, Shartnomadan kelib chiqadigan boshqa huquqlar ham Moliyaviy agentga o'tadi, xususan, Qarzdorga nisbatan jarimalarni qo'llash huquqi, Mijozga taqdim etilgan ta'minotga bo'lgan huquqlar, mumkin bo'lgan sug'urta talablari bo'yicha foyda oluvchining huquqlari, va boshqalar.

3.3. Qarzdorga o'tkazilmaydigan Mijozning Pul talabnomalari:

- muddati o'tgan debitorlik qarzlari deb hisoblanganlar;
- to'lov muddati yetkazib berilgan kundan boshlab 180 (bir yuz sakson) kalendar kundan ortiq bo'lsa;
- Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida Qarzdor tomonidan talablar qo'yishi munosabati bilan Qarzdor bilan har qanday nizo va kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa;
- komitent (prinsipal) tomonidan topshirilgan komissioner (agent) bilan tuzilgan Shartnomalardan kelib chiqadigan.

3.4. Moliyaviy agentga o'tkazilgan Pul talabnomasini Mijozga Moliyalashtirish qiymati miqdorida to'lash Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida amalga oshiriladi.

3.5. Mijozga to'lov ushbu Shartnomaning 14-bo'limida ko'rsatilgan Mijoz rekvizitlariga muvofiq amalga oshiriladi. To'lovni o'tkazish sanasi Moliyaviy agentning joriy hisobvarag'idan mablag'lar yechib olingan sana hisoblanadi.

### **4. O'TKAZILGAN PUL TALABNOMALARINI TO'LASH TARTIBI**

4.1. Qarzdor/Mijoz tomonidan o'tkazilgan Pul talabnomalarini to'lash Shartnomada ko'rsatilgan Moliyaviy agentning rekvizitlari bo'yicha amalga oshiriladi.

4.2. Qarzdor/Mijoz to'lovlarni Shartnoma va ushbu Shartnomada belgilangan shartlarga muvofiq o'z vaqtida va miqdorda amalga oshiradi.

4.3. Qarzdor/Mijoz, birinchi navbatda, Moliyaviy agentning ushbu Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Moliyaviy agentga to'lanishi shart bo'lgan o'tkazilgan Pul talabnomalarini to'lash bo'yicha talablarini qondirishi shart, Bu haqda Qarzdor/Mijoz xabardor qilinadi va bunga rozilik beradi.

4.4. Qarzdor/Mijoz majburiyatlarini qoplashning quyidagi tartibi belgilanadi:

- Pul talabnomasi bo'yicha asosiy qarzni (moliyalashtirish qiymatini) qoplash;
- Qarzdor/Mijozning mas'uliyati (penyalar) bilan bog'liq holda yuzaga kelgan qarzni qoplash.

## **5. MOLIYAVIY AGENTNING MUKOFOTI**

5.1. Mijozga faktoring xizmatlarini ko'rsatganligi uchun Mijoz Moliyaviy agentga Mukofot to'laydi.

5.2. Faktoring xizmatlari uchun komissiya (chegirma) Shartnoma bo'yicha barcha kechiktirish muddati uchun moliyalashtirilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qarzdor tomonidan Pul talabnomasi muddatidan oldin qoplangan taqdirda, moliyalashtirishdan foydalanganlik uchun komissiya miqdori qayta ko'rib chiqilmaydi.

5.3. Mukofotni hisoblash uchun asos bo'lib, Shartnomada ko'rsatilgan Moliyaviy agentga o'tkazilgan Pul talabnomasining miqdori hisoblanadi.

5.4. Moliyalashtirishdan foydalanganlik uchun komissiya miqdori Moliyalashtirish taqdim etilgan kundan kechiktirmay belgilanadi.

5.5. Moliyalashtirishdan foydalanganlik uchun komissiyani to'lovi Moliyaviy agent tomonidan Mijozning hisobvarag'iga (chegirma) o'tkaziladigan Moliyalashtirish qiymatidan tegishli miqdorni chegirib tashlagan holda amalga oshiriladi.

## **6. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **6.1. Mijoz majburiyatlari:**

6.1.1. Qarzdor bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish;

6.1.2. Moliyaviy agent oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olish:

- o'tkazish predmeti bo'lgan Pul talabnomasining haqiqiyliги uchun;
- ushbu Shartnomada belgilangan tartibda Moliyaviy agentga o'tkazilgan Pul talabnomalarini Qarzdor bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun;
- Qarzdorning Mijozga hisob-kitob qilish uchun qarshi talablari bo'lgan talablar Moliyaviy agentga o'tkazilgan taqdirda.

6.1.3. Mijoz tomonidan Moliyaviy agent foydasiga ko'ra o'tkazilgan Pul talabnomalari to'g'risida Qarzdorni yozma ravishda (elektron hujjat aylanishi tizimi orqali (Didox yoki boshqalar), qabul qilinganligi to'g'risidagi tasdiqnoma bilan pochta orqali, Qarzdorning ishonchli vakili tomonidan imzolangan holda) Shartnomaning 1-ilovasida Taraflar tomonidan kelishilgan xabarnoma shaklida xabardor qilish - ushbu Shartnoma imzolangandan so'ng keyingi ish kundan kechiktirmay (moliyalashtirish taqdim etilishidan oldin) va Qarzdorning xabardorligi dalilini tasdiqlovchi hujjatni Moliyaviy agentga taqdim etishi;

6.1.4. Qarzdor bilan almashinadigan barcha hujjatlarning uning muhri bilan tasdiqlangan nusxalarini bunday hujjatlar yuborilgan yoki olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Moliyaviy agentga taqdim etishi;

6.1.5. Tegishli so'rov olingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kuni mobaynida Moliyaviy agentning talabiga ko'ra Qarzdor to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni, shuningdek boshqa hujjatlarni o'tkazilgan Pul talabnomasi bo'yicha va shaxsan o'zi tomonidan yozma ravishda taqdim etishi;

6.1.6. Moliyaviy agentga o'ziga ma'lum bo'lgan quyidagi ma'lumotlar to'g'risida darhol yozma ravishda xabar berish:

- Qarzdorning to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi yoki unga o'tkazilgan Pul talabnomasining bajarilishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar to'g'risida;

- Qarzdor biron-bir sababga ko'ra o'z to'lov majburiyatlarini qisman yoki to'liq nizolashtirayotgan holatlar to'g'risida;

- o'tkazilgan Pul talabnomasiga yoki uning ta'minotiga nisbatan uchinchi shaxsning huquqi kuchga kirgan yoki uchinchi shaxslar unga da'vo qiladigan holatlar to'g'risida;

- o'zi uchun ham, Qarzdor uchun ham ushbu Shartnomaning predmeti bo'lgan majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ta'sir qiluvchi huquqiy va/yoki iqtisodiy xarakterdagi barcha o'zgarishlar to'g'risida, hatto bu o'zgarishlar faqat individual majburiyatlarga ta'sir qilgan hollarda ham;

6.1.7. Qarzdor Mijozning hisobvaraqlar(iga) o'tkazilgan Pul talabnomalari bo'yicha to'lov miqdori qabul qilingan taqdirda, ushbu mablag'lar kelib tushgan paytdan e'tiboran ularni keyingi ish kunidan kechiktirmay Moliyaviy agentga o'tkazilishini ta'minlasin. Qarzdor tomonidan Mijozning hisobvarag'iga o'tkazilgan Pul talabnomasini to'lash Qarzdor tomonidan o'tkazilgan Pul talabnomasini to'lash majburiyatini lozim darajada bajarganligini anglatmaydi. Mijoz ushbu bandga muvofiq Moliyaviy agentga pul mablag'larini o'tkazmagunga qadar, uni qoplash uchun Qarzdor Mijozning hisob raqamiga pul o'tkazganda Qarzdordan Moliyaviy agent foydasiga o'tkazilgan Pul talabnomasini to'lashni talab qilish huquqini Moliyaviy agent o'zida saqlab qoladi;

6.1.8. Moliyaviy agentning yozma roziligisiz Shartnoma shartlariga o'tkazilgan Pul talabnomasining parametrlariga ta'sir etuvchi o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritmaslik;

6.1.9. Moliyaviy agent va Qarzdor o'rtasida Moliyaviy agent tomonidan o'tkazilgan Pul talabnomalari bo'yicha o'z huquqlarini amalga oshirishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, Moliyaviy agentning tegishli so'rovi olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida, Moliyaviy agentga mavjud bo'lgan yoki olishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etishi va nizoning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan yoki olishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar haqida xabar berish.

Mijoz Moliyaviy agentga unga o'tkazilgan Pul talabnomalari bo'yicha o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun barcha zarur tushuntirishlarni taqdim etadi;

6.1.10. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan Moliyaviy agent xizmatlari uchun haq to'lash;

6.1.11. Qarzdor tomonidan o'tkazilgan talabnomani to'lash majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, o'tkazilgan talabnomani regress davri tugagunga qadar Moliyaviy agentga to'lash;

6.1.12. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan talabnomalarni o'tkazmaslik yoki garovga qo'yimaslik;

6.1.13. Pul talabnomasining huquqlari Moliyaviy agentga o'tkaziladigan, Shartnomadan kelib chiqadigan Pul talabnomalarini garovga qo'yimaslik.

## **6.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

6.2.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq faktoring xizmatlarini ko'rsatish tartibi va shartlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish;

6.2.2. Qarzdorning o'tkazilgan Pul talabnomasini to'lash bo'yicha majburiyatlarini bajarish;

6.2.3. Moliyaviy agentdan o'tkazilgan Pul talabnomasining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, Moliyaviy agent ushbu Shartnoma bo'yicha hisob-kitoblarni yuritadigan boshqa ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish.

## **6.3. Moliyaviy agent quyidagi majburiyatlarni oladi:**

6.3.1. Ushbu Shartnomada belgilangan tartibda, miqdorlarda va muddatlarda Mijozni moliyalashtirish (Mijozga o'tkazilgan Pul talabnomasi uchun mablag'larni o'tkazish);

6.3.2. Qarzdor/Mijoz Pul talabnomasini to'lagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, Mijozga o'tkazilgan talabnomalar bo'yicha pul oqimi to'g'risidagi hisobotni yuborish;

6.3.3. Qarzdordan Moliyaviy agentning hisob raqamiga pul mablag‘lari Mijoz tomonidan o‘tkazib berilmagan Pul talabnomasini to‘lash uchun kelib tushgan taqdirda, pul mablag‘lari kelib tushgan paytdan e‘tiboran 1 (bir) ish kuni ichida Mijoz va Qarzdorga tegishli yozma bildirishnoma jo‘natish;

6.3.4. Qarzdordan Moliyaviy agent hisobvarag‘iga Pul talabnomasini to‘lash uchun pul mablag‘lari kelib tushgan taqdirda, ushbu Pul talabnomasi Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 8.2-bandida nazarda tutilgan tartibda to‘langanidan keyin ko‘rsatilgan pul mablag‘lari olingan paytdan boshlab, 1 (bir) ish kuni ichida Mijozga va Qarzdorga tegishli yozma xabarnoma yuborish;

6.3.5. Qarzdor tomonidan o‘tkazilgan Pul talabnomasi o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda, Mijozga bu haqda darhol faks orqali, elektron hujjat aylanish tizimi (Didox yoki boshqalar), elektron pochta orqali, Qarzdorning vakolatli vakilining imzosi va boshqalar orqali tegishli xabarni yuborish orqali xabardor qilish.

#### **6.4. Moliyaviy agent quyidagi huquqlarga ega:**

6.4.1. Regress bajarilish davri boshlanishidan oldin Qarzdorni 1-ilovada ko‘rsatilgan shakl bo‘yicha o‘tkazilgan Pul talabnomalarini to‘lash zarurligi to‘g‘risida xabardor qilish;

6.4.2. Mijozni majburiy ravishda yozma ravishda xabardor qilgan holda, Qarzdorga nisbatan Pul talabnomalarini uchinchi shaxslarga o‘tkazish;

6.4.3. Regress bajarilish davri tugaganidan keyin Qarzdordan yoki Mijozdan o‘tkazilgan Pul talabnomalari bo‘yicha to‘lovni olish uchun qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan choralarni qo‘llash;

6.4.4. Agar Mijoz ushbu Shartnomaga muvofiq (Shartnomaning 8.2-bandi) Moliyaviy agentga to‘lanishi lozim bo‘lgan qiymatlarni o‘z vaqtida o‘tkazmasa, Mijozning istalgan bankdagi barcha mavjud yoki kelajakdagi hisobvaraqlaridan akseptsiz ushbu qiymatlarni hisobdan chiqarish bilan yechib olish va bu haqida ushbu Shartnomani tuzish orqali roziligini bildirishi.

Mijozning asosiy hisobvarag‘i boshqa bankda joylashgan bo‘lsa, Mijoz ushbu Shartnoma bo‘yicha moliyalashtirishdan oldin uning asosiy hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatuvchi bank bilan tuzilgan pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi shartnomaning nusxasini Moliyaviy agentga taqdim etish majburiyatini oladi;

6.4.5. Mijozdan quyidagi hollarda taqdim etilgan Moliyalashtirish miqdoridagi mablag‘ni qaytarishni talab qilish:

- Mijozning Moliyaviy agent oldidagi ushbu Shartnoma, boshqa shartnomalar bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjudligi, shuningdek Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganligi;

- agar Mijoz tomonidan Moliyaviy agentga taqdim etilgan ma‘lumotlar va/yoki hujjatlar haqiqiy emas bo‘lib chiqsa va Mijoz yangi ishonchli ma‘lumotlarni taqdim etmasa;

- Pul talabnomasini to‘lash muddati yakunlangan bo‘lsa;

- Moliyaviy agentning fikriga ko‘ra, Mijoz yoki Qarzdorning majburiyatlari bajarilmasligini yoki tegishli pul talabnomasining haqiqiy emasligini yoki haqiqiy emasligi tan olinishini ko‘rsatadigan Moliyaviy agent tomonidan aniqlagan holatlar.

## **7. TARAFLARNING MA’SULIYATI**

7.1. Moliyaviy agent tomonidan Mijozga ushbu Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda pul mablag‘larini to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Moliyaviy agent mijozga to‘lov muddati o‘tgan har bir kun uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan mablag‘lar qiymatidan 0,1% (nol butun o‘ndan bir foiz), lekin kechiktirilgan qiymatning 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima to‘lash majburiyatini oladi.

7.2. Mijoz o‘tkazishning predmeti bo‘lgan Pul talabnomasining haqiqiyliigi va ushbu Shartnomaga muvofiq topshirilgan hujjatlarning to‘g‘riligi uchun javobgardir .

7.3. Agar Mijoz tomonidan Moliyaviy agentga o‘tkazilgan Pul talabnomasi haqiqiy emas deb topilsa yoki Shartnoma haqiqiy emas va tuzilmagan deb topilsa, va unga nisbatan haqiqiy

bo'lmagan bitimning oqibatlarini qo'llanilsa, Mijoz Moliyaviy agentga ushbu Shartnoma bo'yicha u tomonidan haqiqatda olingan moliyalashtirish qiymatini va ushbu Shartnomaning 8.2-bandiga muvofiq Moliyaviy agentga to'lanishi kerak bo'lgan qiymatdagi pul mablag'larini Moliyaviy agentning tegishli so'rovi olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida o'tkazishi shart.

7.4. Qarzdor tomonidan qarshi talablarning hisob-kitob qilinishi, Qarzdor tomonidan mahsulotning qaytarilishi natijasida mahsulotlarning tasodifiy yo'qolishi yoki tasodifiy shikastlanish xavfi yuzaga kelgunga qadar mahsulotning yo'qolishi/buzilishi Qarzdorga o'tgan taqdirda, Mijozdan yoki o'tkazilgan Pul talabnomasi miqdorining boshqa sababli kamaygan bo'lsa, o'tkazilgan Pul talabnomasining miqdori tegishli reestrda ko'rsatilgan miqdordan kamaygan bo'lsa, Mijoz Moliyaviy agentga o'tkazilgan Pul talabnomasi bunday qisqartirilish yuzaga kelgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida o'tkazilgan pul mablag'larini o'tkazib berishi shart. Ushbu bandning qoidalari hech qanday holatda Mijoz va Qarzdorga Qarzdorning qarshi talablarini qayd qilish, mahsulotlarni qaytarib jo'natish (qaytarib yuborish) yoki o'tkazilgan Pul talabnomasi miqdorini boshqacha tarzda kamaytirish huquqini bermaydi. Qarshi talablarning ko'rsatilgan qaydi, mahsulotlarni qaytarib jo'natish (qaytarib yuborish) yoki o'tkazilgan Pul talabnomasi miqdorini boshqa kamaytirishlar noqonuniy hisoblanadi va Moliyaviy agent ularning qonuniyligiga belgilangan tartibda e'tiroz bildirishga haqli.

7.5. Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, shu jumladan Mijoz tomonidan yetkazib beriladigan mahsulotlar/bajarilgan ishlarning sifati yoki ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha Qarzdor tomonidan yozma da'volar qo'yilishi munosabati bilan Qarzdor bilan nizolar va kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, Mijoz Qarzdorning bunday talablari yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida ularga nisbatan Qarzdorning da'volari mavjud bo'lgan o'tkazilgan Pul talabnomalari miqdoriga teng miqdorga muvofiq bo'lgan miqdorda Moliyaviy agentga pul o'tkazishi shart.

7.6. Agar o'tkazilgan Pul talabnomalari garovga qo'yilganligi, o'tkazilgan Pul talabnomalariga uchinchi shaxslarning huquqlari yuklanganligi yoki o'tkazilgan Pul talabnomalari xibsga olinganligi aniqlansa, Mijoz Moliyaviy agentga garovga qo'yilganligi, uchinchi shaxslarning huquqlari yuklanganligi va/yoki xibsga olinganligi dalili aniqlangan yoki xibsga olingan bo'lsa, shularga teng miqdorda tegishli o'tkazilgan Pul talabnomalari bo'yicha tegishli talab olingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Moliyaviy agentga pul o'tkazishi shart.

7.7. Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 7.3., 7.4., 7.5., 7.6. bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarilmagan va/yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Moliyaviy agent kechiktirilgan har bir kun uchun to'lov muddati o'tgan qiymatning 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan qiymatning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni talab qilishga haqli.

7.8. Mijoz Qarzdor tomonidan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq, ushbu Shartnomaning 8-bo'limida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Moliyaviy agentga yuklangan Pul talabnomalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo'ladi.

7.9. Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham javobgar bo'ladilar.

## **8. QARZDORLAR TOMONIDAN O'TKAZILGAN PUL TALABNOMALARINI BAJARMAGANLIGI YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIGI UCHUN MIJOZNING JAVOBGARLIGI**

8.1. Qarzdor tomonidan Moliyaviy agentga o'tkazilgan Pul talabnomasini to'liq yoki qisman to'lamagan taqdirda, Moliyaviy agent Shartnoma bo'yicha kechiktirish muddati tugagan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijozni yozma ravishda xabardor qiladi.

8.2. Regress bajarilishi davrida Mijoz Moliyaviy agentga o'tkazilgan Pul talabnomasi qiymati va Qarzdordan ushbu Pul talabnomasini to'lashda Moliyaviy agent tomonidan haqiqatda olingan to'lovlar qiymati o'rtasidagi farqni o'tkazadi.

Moliyaviy agent tomonidan ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Mijoz Moliyaviy agentga to'lovni kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan mablag'lar qiymatining 0,1 foizi (nol butun o'ndan bir foiz) miqdorida, lekin muddati

o'tgan qiymatning 50% dan oshmagan holda jarima to'lash majburiyatini oladi.

8.3. Agar Mijoz ushbu Shartnomaning 8.2-bandida nazarda tutilgan majburiyatini bajarsa, Qarzdor tomonidan bajarilmagan qismidagi Pul talabnomasi Mijozga o'tkaziladi. Mijoz ushbu Shartnomaning 8.2-bandida nazarda tutilgan majburiyatni bajargan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Moliyaviy agent Mijozning so'roviga binoan, unga ushbu bandga muvofiq Mijozga o'tkazilgan Pul talabnomasi mavjudligini tasdiqlovchi ilgari olingan hujjatlarni yetkazib beradi. Hujjatlar Mijozga ko'rsatilgan hujjatlarning Mijozga topshirilganligi dalilini keyinchalik tasdiqlash imkonini beradigan tarzda topshiriladi. Moliyaviy agent Mijozning yozma talabiga binoan Qarzdorni amalga oshgan Pul talabnomasi o'tkazilishi to'g'risida xabardor qiladi.

## **9. MAXFIYLIK HAQIDA QOIDALAR**

9.1. Ushbu Shartnoma doirasida Taraflar rasmiy va tijorat sirlari quyidagilarni o'z ichiga olishini tan oladilar: ushbu Shartnomaning barcha moliyaviy shartlari, shu jumladan komissiya miqdori, Taraflar tomonidan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq bir-biriga uzatiladigan barcha ma'lumotlar, shu jumladan Taraflarning va Mijoz Qarzdorining moliyaviy ahvoli, shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha Taraflar tomonidan topshirilgan hujjatlardagi ma'lumotlar, shu jumladan Birlamchi hujjatlar va haqiqiy yoki muqobil tijorat qiymatiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar, ammo qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holda rasmiy yoki tijorat siri bo'lmagan, shuningdek tarqatilishi ularning yozma roziligi bilan olingan uchinchi shaxslarga tegishli ma'lumotlar bundan mustasno bo'lishi mumkin.

9.2. Ushbu Shartnomaning 9.1-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar uchinchi shaxslarga faqat boshqa Tarafning yozma roziligi bilan berilishi mumkin va boshqa Tarafning yozma rozilgisiz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bunday axborotni olish huquqiga ega bo'lgan faqat sud, tergov va boshqa organlarga berilishi mumkin.

9.3. Qarzdorga nisbatan keyinchalik Pul talabnomasi uchinchi shaxslarga topshirilgan taqdirda, Moliyaviy agent Mijozning yozma rozilgisiz ushbu Shartnoma bo'yicha o'zi olgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni ushbu uchinchi shaxslarga topshirishga haqli.

9.4. Taraflar ushbu Shartnomaning 9.1-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni ruxsatsiz o'tkazish (shu jumladan ma'lumotlarni sizib chiqishi) uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgardirlar.

## **10. TARAFLARNING KAFOLATLARI VA VAKOLATLARI**

10.1. Taraflar quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

– ruxsat berish/tasdiqlash/kelishish tartib-qoidalariga va organlarning qonuniy vakolatiga muvofiq olingan ushbu Shartnomani tuzish uchun barcha zarur korporativ ruxsatnomalar va ruxsatnomalar/tasdiqlashlar/kelishuvlar, shuningdek uni tuzish uchun har qanday qo'shimcha ruxsatnomalar/tasdiqlashlar/kelishishlar olish zarurati bo'lmagan holda barcha huquq va vakolatlariga egalar va ular tomonidan vakolatli/muvofiqli organlar/tashkilotlardan barcha zarur ruxsatnomalar olingan, shuningdek;

– belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tijorat faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega;

– soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olingan, bozorda ijobiy ishchanlik obro'siga, barqaror moliyaviy ahvoriga va ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun yetarli mablag'ga ega;

– tugatilish jarayonida bo'lmaganlar, ushbu Shartnomani tuzishga to'sqinlik qiladigan jinoiy va ma'muriy ish yuritishda ishtirok etmaganlar;

– ushbu Shartnomaning to'g'ri bajarilishiga to'sqinlik qiladigan uchinchi shaxslarning taqiqlari, garovlari, yuklovlari va/yoki huquqlari mavjud emas;

- ushbu Shartnoma ta'sis hujjatlariga muvofiq uni imzolashga vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, vakolatlari yo'qligi sababli ushbu Shartnomani haqiqiy emas deb topish uchun asoslar mavjud emas;

– ushbu Shartnoma xayoliy/soxta emas va ushbu Shartnoma shartlari uning haqiqiy iqtisodiy mazmuniga mos keladi.

10.2. Shartnoma asosida Taraflar bir-birlaridan (Taraflardan birining talabiga binoan) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning tegishli tartibda tasdiqlangan yoki skanerdan o'tkazilgan nusxalarini, ushbu Shartnomani imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjatlarni, litsenziyalarni, sertifikatlar va agar mavjud bo'lsa, ushbu Shartnomani to'g'ri bajarish uchun talab qilinadigan boshqa ruxsatnomalarni so'rov qilishlarga va taqdim etishga haqlidirlar.

10.3. Taraflar ushbu bobda keltirilgan kafolatlar va vakolatlarning haqiqiy ekanligini tasdiqlaydilar. Ularning buzilishi belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi mumkin.

10.4. Taraflar boshqa Tarafning har qanday faoliyatiga, boshqa Tarafning faoliyatiga aralashish bilan bog'liq talablarni ilgari surmaslikka, shuningdek boshqa Tarafga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi taqiqlarga aralashmaslikka kafolat beradilar.

## **11. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR**

11.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning tegishli shaxslari, xodimlari yoki vositachilari bunday shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun, har qanday noto'g'ri foyda olish yoki boshqa nomaqbul maqsadga erishish uchun bevosita yoki bilvosita har qanday pul yoki mol-mulkni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar yoki to'lashga ruxsat bermaydilar.

11.2. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Taraflar, ularning tegishli shaxslari, xodimlari yoki vositachilari Shartnoma maqsadlari uchun qo'llaniladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan pora berish/olish, tijoriy sotib olish, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro dalolatnomalar talablari bo'yicha boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

11.3. Shartnoma Taraflarining har biri boshqa Tarafning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, ularga bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullarni taqdim qilgan holda xodimni ma'lum bir qaramlikda va ushbu xodimning uni rag'batlantirgan Taraf foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadi.

11.4. Agar biror Taraf korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Taraf boshqa Tarafni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada Taraf ushbu shartlar va shartlarning har qanday qoidalarining buzilishi Taraf, uning tegishli shaxslari, xodimlari yoki vositachilari tomonidan sodir qilingan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini ishonchli tasdiqlaydigan yoki taxmin qilish uchun asos beradigan, amaldagi qonunchilikda pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik sifatida tavsiflangan harakatlar, shuningdek, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlarda ifodalangan dalillarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi shart.

11.5. Korrupsiyaning oldini olish maqsadida Taraflar bir-biriga yordam beradilar. Shu bilan birga, Taraflar tomonlarning korrupsiya faoliyatiga aloqadorligi xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish tartib-qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

11.6. Taraflar Maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan korrupsion xarakterdagi masalalar va holatlar bo'yicha tegishli ish yuritishni, shuningdek, salbiy oqibatlarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni qo'llashni kafolatlaydilar.



11.7. Taraflar Shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurash shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, buzilishlar haqida xabar bergan Taraf xodimlari uchun salbiy oqibatlarining yo'qligini kafolatlaydilar.

## **12. NIZOLARNI KO'RIB KO'RISH**

12.1. Ushbu Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish, bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq holda Taraflar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

12.2. Agar nizoni tinch yo'l bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki unga bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, ijro etish, buzish, bekor qilish, tugatish va amal qilish bilan bog'liq bo'lgan talablar, Talabgorning ixtiyoriga ko'ra «DS Legal Centre» MChJ qoshidagi Doimiy hakamlik sudida yoki Toshkent shahar tumanlararo xo'jalik sudida ko'rib chiqilishi kerak.

«DS Legal Centre» MChJ qoshidagi Doimiy hakamlik sudida ishni ko'rib chiqishda, ish «DS Legal Centre» MChJ qoshidagi Doimiy hakamlik sudi qoidalariga muvofiq ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

## **13. BOSHQA SHARTLAR**

13.1. Ushbu shartnoma har ikki tomon imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Qarzdor/Mijoz ushbu shartnoma bo'yicha Bank oldidagi barcha majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

13.2. Taraflardan biri yuridik shaxs sifatida faoliyatini to'xtatgan yoki uning huquqiy holati boshqa o'zgarishlarga uchragan taqdirda, u boshqa tomon oldidagi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z faoliyati tugatilgunga qadar (o'zgartirishlar) bajarishi shart, agar ular bajarilmasa, majburiyatlar tugatilayotgan (o'zgartirishlarga uchragan) tarafning huquqiy vorisi zimmasiga tushadi.

13.3. Mijoz va Qarzdor o'rtasidagi Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyat va mas'uliyatni lozim darajada bajarishdan ozod qilmaydi.

13.4. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan Taraflarning bildirishnomalari, xabarlari va boshqa hujjatlari yozma shaklda tuziladi va pochta, elektron pochta, faks orqali, Taraflarning rekvizitlariga muvofiq yoki Taraflarning vakolatli xodimlariga yetkazib berish orqali yuboriladi.

13.5. Taraflar amaldagi qonun hujjatlariga va (yoki) ushbu Shartnomaga muvofiq yozma shaklda tuzilishi kerak bo'lgan barcha hujjatlar tegishli hujjatlarni faksimil aloqa orqali almashinish orqali imzolanishi mumkinligiga rozi bo'ladilar.

13.6. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha o'tkazilishi kerak bo'lgan barcha hujjatlar faksimil aloqa yordamida o'tkazilishi mumkinligiga rozi bo'ladilar. Taraflar manfaatdor Tarafdand tegishli hujjatlarni taqdim etish to'g'risidagi talab olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida faksimil orqali yuborilgan hujjatlarning asl nusxalarini bir-birlariga taqdim etish majburiyatini oladilar.

13.7. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha qo'shimchalar va o'zgartirishlar faqat yozma ravishda amalga oshiriladi va Taraflar tomonidan imzolanadi.

13.8. Agar ushbu Shartnomaning bir yoki bir nechta qoidalari (shartlari) qonun yoki sud qarori bilan o'z kuchini yo'qotsa, bu ushbu Shartnomaning boshqa qoidalarini (shartlarini) bekor qilish uchun asos bo'la olmaydi.

13.9. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada, har bir Taraf uchun bittadan tuzilgan.

13.10. Ushbu Shartnoma matnida ko'rsatilgan barcha ilovalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

13.11. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan barcha boshqa jihatlarida Taraflar Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga amal qiladilar.

**14. TARAFLARNING JOYLASHUV MANZILI, POCHTA MANZILLARI VA BOSHQA REKVIZITLARI**

14.1. Moliyaviy agent: nomi, joylashuvi, rekvizitlari. Xabarlar va hujjatlar yuboriladigan faks raqami va boshqalar. \_\_\_\_\_.

14.2. Mijoz: nomi, joylashuvi, rekvizitlari. \_\_\_\_\_  
Xabarlar yuboriladigan faks raqami. \_\_\_\_\_.

Taraflar imzolari:

**Moliyaviy agent:**

Rahbar

\_\_\_\_\_  
//

Muxr joyi

**Mijoz:**

Rahbar

\_\_\_\_\_  
//

Muxr joyi

Bosh buxgalter

\_\_\_\_\_  
//